

MAKTAB TA'LIMIDA BILIMNI BAHOLASHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18754178>

Bekturdiev Aybek Elmuratovich

Nukus davlat texnika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktab ta'limida bilimni baholashning an'anaviy (yozma, og'zaki, test) hamda zamonaviy (diagnostik, formatif, summativ, reyting, kriterial, rubrika, monitoring) usullari nazariy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Baholashning ta'lim jarayonidagi diagnostik, rivojlantiruvchi, rag'batlantiruvchi va nazorat funksiyalari yoritilib, baholashni sinf, maktab va tizim darajasida izchil tashkil etish zarurati asoslanadi. Maqolada an'anaviy baholashning afzalliklari bilan bir qatorda mavjud cheklovlari ham ochib beriladi hamda ularni zamonaviy baholash yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish yo'llari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari maktab ta'limida baholash tizimini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Аннотация

В статье проводится теоретико-педагогический анализ традиционных (письменный, устный, тестовый контроль) и современных (диагностическое, формативное, суммативное, рейтинговое, критериальное оценивание, рубрики, мониторинг) методов оценивания знаний в школьном образовании. Раскрываются основные функции оценивания в образовательном процессе: диагностическая, развивающая, мотивационная и контрольная. Обосновывается необходимость системной организации оценивания на уровне класса, школы и образовательной системы в целом. Выявляются преимущества и ограничения традиционных форм оценивания, а также предлагаются пути их интеграции с современными подходами. Полученные выводы могут быть использованы для совершенствования практики оценивания и повышения качества школьного образования.

Abstract

The article presents a theoretical and pedagogical analysis of traditional (written, oral, and test-based assessment) and modern (diagnostic, formative, summative, rating-based, criterion-referenced assessment, rubrics, and monitoring) methods of evaluating students' learning outcomes in school education. The main functions of assessment in the educational process—diagnostic, developmental,

motivational, and control—are examined. The necessity of a systematic organization of assessment at the classroom, school, and system levels is substantiated. The advantages and limitations of traditional assessment methods are identified, and ways of integrating them with modern assessment approaches are proposed. The findings of the study contribute to improving assessment practices and enhancing the quality of school education.

Kalit soʻzlar

baholash tizimi, anʼanaviy baholash, zamonaviy baholash, formatif baholash, summativ baholash, kriterial baholash, monitoring, kompetensiyaviy yondashuv.

Ключевые слова

система оценивания, традиционные методы оценивания, современные методы оценивания, формативное оценивание, суммативное оценивание, критериальное оценивание, мониторинг, компетентностный подход.

Keywords

assessment system, traditional assessment methods, modern assessment methods, formative assessment, summative assessment, criterion-referenced assessment, monitoring, competency-based approach.

Baholash maktab taʼlimining barcha bosqichlarida taʼlimiy natijalarni izchil kuzatib borish, oʻquv jarayonini samarali boshqarish hamda taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi eng muhim pedagogik mexanizmlardan biri hisoblanadi. U nafaqat oʻquvchilarning egallagan bilim, koʻnikma va malakalarini aniqlash vositasi, balki taʼlim jarayonining holati va rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi tizimli koʻrsatkich sifatida ham namoyon boʻladi. Shu jihatdan baholash taʼlim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi boʻlib, oʻqitish mazmuni, metodlari va natijalari oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni taʼminlaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar baholashning anʼanaviy talqinini tubdan qayta koʻrib chiqishni talab etmoqda. Bugungi kunda baholash faqat “yakuniy natijani qayd etish” yoki nazorat funksiyasi bilan cheklanib qolmasdan, balki muammolarni aniqlash, oʻquvchilarga sifatli va oʻz vaqtida teskari aloqa (feedback) berish, oʻqitish strategiyalarini moslashtirish hamda oʻquvchilarning individual rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash kabi muhim vazifalarni ham bajarishi lozimligi eʼtirof etilmoqda. Bunday yondashuv baholashni taʼlim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi rivojlantiruvchi mexanizm sifatida talqin etish imkonini beradi [1].

Shu sababli baholash tizimi zamonaviy taʼlim islohotlarining muhim sharti va ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Taʼlim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, oʻquvchilarning mustaqil fikrlash va

amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish kabi vazifalar samarali baholash tizimisiz amalga oshirilishi qiyin. Baholash orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi, ta'limdagi kamchiliklar ochib beriladi hamda pedagogik faoliyatga zarur tuzatishlar kiritiladi.

Postsovet hududidagi ko'plab mamlakatlar singari, Qirg'izistonda ham ishonchli, shaffof va adolatli baholash tizimini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xalqaro baholash dasturlari (jumladan, PISA) hamda milliy baholash tadqiqotlari natijalari ta'lim sifati masalasining dolzarbligini yanada kuchaytirmogda va mavjud baholash modellarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash zaruratini yuzaga keltirmogda. Ushbu natijalar o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning amaliy, funksional va hayotiy kompetensiyalarini baholash muhimligini ko'rsatadi.

Shunga o'xshash tendensiyalar O'zbekiston ta'lim amaliyotida ham yaqqol kuzatilmogda. So'nggi yillarda sinf ichidagi joriy va oraliq baholash turlari, o'tish imtihonlari, bitiruv attestatsiyasi, test sinovlari, fan olimpiadalari, shuningdek ichki va tashqi monitoring tadqiqotlari baholash amaliyotining ko'lamini sezilarli darajada kengaytirdi. Bu holat baholash tizimining ta'lim sifati va natijalarini ta'minlashdagi ro'lini yanada oshirmogda hamda baholashga nisbatan kompleks va tizimli yondashuvni talab etmogda.

Demak, maktab ta'limida baholash masalasi oddiy nazorat jarayoni emas, balki murakkab, ko'p qirrali va uzluksiz rivojlanib boruvchi pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi. Uni samarali tashkil etish an'anaviy va zamonaviy baholash yondashuvlarini ilmiy asosda uyg'unlashtirish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun shaffof va adolatli baholash mexanizmlarini yaratishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - maktab ta'limida bilimni baholashning an'anaviy (yozma, og'zaki, test) hamda zamonaviy (diagnostik, formatif, summativ, reyting, kriterial, rubrika, monitoring) usullarini nazariy-pedagogik jihatdan chuqur tahlil qilish, ularning ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari va amaliy cheklovlarini aniqlash hamda baholash amaliyotini zamonaviy ta'lim talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat [2].

Mazkur maqsadga erishish uchun tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- baholashning ta'lim jarayonidagi asosiy pedagogik funksiyalarini, xususan diagnostik, teskari aloqa (feedback), rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi va nazorat

funksiyalarini nazariy manbalar asosida yoritish hamda ularning o'quv jarayonidagi ahamiyatini asoslab berish;

- maktab ta'limida keng qo'llaniladigan an'anaviy baholash usullari (yozma, og'zaki va test nazorat shakllari)ning didaktik imkoniyatlari, afzalliklari va mavjud cheklovlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

- zamonaviy baholash yondashuvlari - formatif, summativ, kriterial baholash, monitoring va reyting tizimlarining mohiyatini ochib berish, ularning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishdagi ro'lini aniqlash;

- baholash tizimini sinf-maktab-tizim darajasida izchil va uzviy tashkil etish zaruratini asoslash hamda ushbu darajalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish;

- ta'lim sifati va kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan baholash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy yechim yo'nalishlarini taklif etish.

Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi maktab ta'limida bilimni baholash tizimini yanada takomillashtirish, baholash jarayonining shaffofligi va adolatliligini ta'minlash hamda o'quvchilarning ta'limiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi samarali baholash mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktab ta'limida bilimni baholashning an'anaviy va zamonaviy usullarini o'rganish hamda ularning pedagogik samaradorligini aniqlash maqsadida umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlari majmuasi qo'llanildi.

Xususan, tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tahlil metodi - pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarda yoritilgan baholashga oid nazariy qarashlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy tadqiqot natijalarini chuqur o'rganish va ularning mazmunini aniqlashda qo'llanildi;

- qiyosiy (komparativ) metod - an'anaviy va zamonaviy baholash usullarini, shuningdek milliy va xalqaro baholash amaliyotlarini (maktab darajasidagi baholash, milliy monitoringlar, PISA kabi xalqaro tadqiqotlar) o'zaro taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashda foydalanildi;

- umumlashtirish metodi - tahlil qilingan ilmiy manbalar va amaliy tajribalar asosida baholash tizimining asosiy tendensiyalari, muammolari va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qildi;

- analogiya metodi - turli mamlakatlar va ta'lim tizimlarida qo'llanilayotgan baholash modellarini milliy maktab ta'limi amaliyoti bilan solishtirish va ularni moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashda qo'llanildi;

- sintez metodi - alohida o'rganilgan nazariy qarashlar va amaliy ma'lumotlarni yagona tizimga keltirib, baholash jarayonining kompleks modelini shakllantirishda foydalanildi;

- deduksiya metodi - umumiy pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqib, maktab ta'limida baholashni takomillashtirishga doir aniq xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida baholashga oid nazariy yondashuvlar hamda amaliy tajribalar (sinf darajasidagi baholash, maktab ichki monitoringi, milliy va xalqaro baholash dasturlari) mazmuniy-analitik yondashuv asosida o'rganildi. Bu esa baholash tizimining hozirgi holatini obyektiv tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha asoslangan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Davlat ta'lim standartlari hamda zamonaviy pedagogik qarashlar doirasida baholash tizimi o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini o'lchash, mavjud muammolarni aniqlash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali teskari aloqa (feedback)ni ta'minlash hamda ta'lim jarayonining umumiy holati to'g'risida ishonchli ma'lumot beruvchi muhim pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Zamonaviy yondashuvlarda baholash faqat nazorat funksiyasi bilan cheklanmay, balki rivojlantiruvchi, yo'naltiruvchi va motivatsion funksiyalarni ham bajarishi lozimligi alohida ta'kidlanadi.

Pedagogik adabiyotlarda baholash tizimi ta'lim jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida ko'rib, u o'qitish mazmuni, metodlari va natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Shu sababli baholash jarayoni puxta rejalashtirilgan, tizimli va ilmiy asoslangan bo'lishi zarur.

Amaliyotda baholash odatda uch darajada amalga oshiriladi:

- sinf darajasida;
- maktab darajasida;
- tizim (milliy va xalqaro) darajasida.

Sinf darajasidagi baholashning asosiy maqsadi - o'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish, o'qish jarayonini boshqarish va zarur pedagogik yordamni o'z vaqtida ko'rsatishdan iborat. Ushbu darajadagi baholash bevosita dars jarayonida amalga oshirilib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining shakllanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, sinf darajasidagi baholash quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- o'quvchining baholash jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishi;
- baholash mezonlarining oshkoraligi va tushunarligi;
- o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash imkoniyatlarining yaratilishi;
- doimiy va sifatli teskari aloqa (feedback) mexanizmining mavjudligi.

Bunday yondashuv o'quvchilarda mas'uliyat, refleksiya va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda baholashni jazolovchi vositadan rivojlantiruvchi mexanizmga aylantiradi. Ayniqsa, formatif (shakllantiruvchi) baholash sinf darajasida muhim ahamiyat kasb etib, u o'qituvchiga ta'lim jarayonini moslashtirish, o'quvchiga esa o'z bilimlaridagi bo'shliqlarni anglash imkonini beradi.

Maktab darajasidagi baholash ta'lim muassasasi miqyosida o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasini tahlil qilish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xizmat qiladi. Bu darajada baholash ichki monitoring, oraliq va yakuniy nazoratlar, maktab ichki tahlil va diagnostika tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Maktab darajasidagi baholash:

- o'quv dasturlarining bajarilish holatini aniqlash;
- o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilish;
- ta'lim jarayonidagi muammolarni tizimli ravishda aniqlash;
- rivojlantiruvchi va tuzatuvchi choralarni belgilash imkonini beradi.

Mazkur darajadagi baholash natijalari pedagogik kengashlar, metodik birlashmalar faoliyatini rejalashtirishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tizim darajasidagi baholash milliy va xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholash, ta'lim siyosatini shakllantirish va isloh qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u davlat ta'lim standartlari talablarining bajarilish holatini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu darajaga milliy baholash tadqiqotlari, markazlashgan test sinovlari, shuningdek PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari kiradi.

Tizim darajasidagi baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimining umumiy samaradorligini aniqlash;
- o'quvchilarning funksional savodxonligi va kompetensiyalarini baholash;
- xalqaro taqqoslash asosida kuchli va zaif tomonlarni aniqlash;
- ta'lim siyosati va strategiyalarini ilmiy asosda takomillashtirish.

Shunday qilib, baholash tizimi sinf, maktab va tizim darajalarida uzviy bog'langan holda tashkil etilishi lozim. Ushbu darajalar o'zaro uyg'unlashgandagina baholash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizmga aylanadi.

An'anaviy baholash usullari: afzalliklar va cheklovlar

Yozma nazorat - yozma nazorat maktab ta'limida bilimni baholashning eng qadimiy va keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Unga nazorat ishlari, diktantlar, bayon va insholar, yozma testlar, referatlar, mustaqil yozma topshiriqlar kabi baholash shakllari kiradi. Ushbu nazorat turi o'quvchining o'quv materialini

qay darajada o'zlashtirgani, tushunchalarni mantiqiy bog'lay olishi, fikrlarini izchil va asosli bayon qila olishi hamda umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi [3].

Yozma nazoratning pedagogik ahamiyati shundaki, u o'quvchining bilimlarini faqat tayyor javob shaklida emas, balki fikrlash jarayoni mahsuli sifatida namoyon etadi. Ayniqsa, insho va bayon kabi yozma ishlar o'quvchilarning nutq madaniyati, yozma savodxonligi, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan yozma nazorat nafaqat baholovchi, balki rivojlantiruvchi funksiyani ham bajaradi.

Pedagogik amaliyotda yozma ishlar o'qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'quvchining xatolarini chuqur va tizimli tahlil qilish;
- bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni tuzatishga yo'naltirilgan individual yondashuvni ishlab chiqish;
- o'quvchilarning mavzuni tushunish darajasi va mustaqil fikrlash salohiyatini baholash.

Shu bilan birga, yozma nazoratning bir qator cheklovlari ham mavjud. Avvalo, tekshiruv jarayoni ko'p vaqt va mehnat talab qiladi, bu esa o'qituvchining yuklamasini oshiradi. Ikkinchidan, yozma ishlarni baholashda subyektivlik omili saqlanib qolishi mumkin: turli o'qituvchilar bir xil ishni turlicha talqin qilishi ehtimoli mavjud. Uchinchidan, katta sinflarda yozma ishlarni muntazam o'tkazish va batafsil tahlil qilish amaliy jihatdan qiyinchilik tug'diradi.

Bundan tashqari, yozma nazorat ko'pincha o'quvchining bilim natijasini aks ettiradi, biroq uning o'rganish jarayoni va rivojlanish dinamikasini to'liq yoritib bera olmaydi. Bu esa baholashni faqat summativ xarakterga yo'naltirish xavfini keltirib chiqaradi.

Mazkur cheklovlarni kamaytirish va yozma nazorat samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarda quyidagi choralar tavsiya etiladi:

- yozma ishlarni aniq belgilangan mezonlar asosida baholash;
- rubrikalar (baholash jadvali)dan foydalanish orqali obyektivlikni ta'minlash;
- yozma ishlar natijalariga sifatli feedback berish;
- yozma baholashni formatif baholash bilan uyg'unlashtirish.

Shunday qilib, yozma nazorat maktab ta'limida bilimni baholashning muhim va samarali vositasi bo'lib qolmoqda. Biroq u zamonaviy ta'lim talablariga javob berishi uchun an'anaviy shaklda emas, balki ilmiy asoslangan mezonlar va rivojlantiruvchi baholash yondashuvlari bilan boyitilgan holda qo'llanilishi lozim.

Og'zaki nazorat - og'zaki nazorat maktab ta'limida bilimni baholashning an'anaviy va eng bevosita shakllaridan biri bo'lib, savol-javob, kollektivium, suhbat,

muloqotli tekshiruv kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Ushbu baholash turi o'quvchining o'rganilgan materialni qanchalik tushunganini, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olishini hamda o'z fikrini og'zaki ravishda mantiqiy va ravon ifodalash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.

Og'zaki so'rovning pedagogik ahamiyati, avvalo, uning tezkorlik xususiyati bilan belgilanadi. Dars jarayonida o'qituvchi og'zaki savollar orqali o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi, bilimlardagi bo'shliqlarni tezda payqaydi va o'qitish strategiyasiga zarur tuzatishlar kiritadi. Shu ma'noda, og'zaki nazorat "tezkor diagnostika" vazifasini bajarib, formatif baholashning muhim elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Og'zaki baholash o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- tezkor va mustaqil fikrlash;
- og'zaki nutq madaniyati va muloqot kompetensiyasi;
- o'z fikrini asoslash va himoya qilish;
- mantiqiy mulohaza yuritish.

Ayniqsa, yuqori sinflarda og'zaki nazorat o'quvchilarning akademik nutqini rivojlantirish, fan terminologiyasidan to'g'ri foydalanish va ilmiy muloqotga tayyorlashda muhim ro'l o'ynaydi.

Shu bilan birga, og'zaki nazoratning bir qator cheklovlari ham mavjud. Eng avvalo, baholash jarayonida subyektivlik xavfi yuqori bo'lib, baho o'qituvchining shaxsiy munosabati, kayfiyati yoki savol berish uslubiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim o'quvchilarda hayajon (stress) kuchli bo'lib, bu ularning real bilim darajasini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi. Psixologik jihatdan tortinchoq yoki introvert o'quvchilar og'zaki so'rovda o'z salohiyatini yetarli darajada ko'rsata olmasligi mumkin.

Amaliy jihatdan esa sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi og'zaki baholashni barcha o'quvchilar uchun teng va tizimli tarzda tashkil etishni qiyinlashtiradi. Natijada baholash tanlab amalga oshiriladi va ayrim o'quvchilar baholash jarayonidan chetda qolishi ehtimoli yuzaga keladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda og'zaki nazorat samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- savollarni oldindan rejalashtirish va ularni aniq mezonlar asosida baholash;
- og'zaki javoblarga rag'batlantiruvchi va konstruktiv feedback berish;
- og'zaki baholashni yozma va test nazorati bilan uyg'unlashtirish;
- o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Og'zaki nazorat o'quvchilarning bilimlarini tezkor aniqlash va ularni faollashtirishda muhim vosita bo'lsa-da, uning samaradorligi faqatgina ilmiy

asoslangan yondashuv, mezonli baholash va boshqa nazorat shakllari bilan uyg'unlashgan holda ta'minlanadi.

Test nazorati - test nazorati maktab ta'limida bilimni baholashning eng keng qo'llaniladigan va texnologik jihatdan qulay shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu baholash turi qisqa vaqt ichida ko'p sonli o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, natijalarni standartlashtirilgan shaklda qayd etish hamda o'quvchilar o'rtasida taqqoslash imkonini beradi. Aynan shu jihati test nazoratini ommaviy baholash va monitoring tizimlarida muhim vositaga aylantiradi.

Testlar yordamida o'quvchilarning bilimlari diagnostika qilinadi, ta'lim jarayonidagi muammoli jihatlar aniqlanadi va o'zlashtirish dinamikasi muntazam kuzatib boriladi. Shu ma'noda test nazorati nafaqat summativ (yakuniy), balki formatif (joriy) baholash vazifalarini ham bajarishi mumkin. Testlash jarayonining standartlashtirilganligi baholashdagi subyektivlikni sezilarli darajada kamaytirib, natijalarning nisbatan obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogik testlarning sifatini belgilovchi asosiy mezonlar quyidagilardan iborat:

- validlik - test topshiriqlarining belgilangan ta'lim maqsadlariga mosligi;
- ishonchlilik - test natijalarining takroriy o'lchovlarda barqarorligi;
- diskriminativlik - topshiriqlarning kuchli va sust o'quvchilarni farqlash qobiliyati.

Mazkur ko'rsatkichlar test nazoratining ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar test savollari metodik jihatdan puxta ishlab chiqilmagan bo'lsa, baholash natijalari o'quvchilarning real bilim darajasini aks ettirmasligi mumkin. Shu sababli testlarni tuzishda fan mazmuni, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hamda kompetensiyaviy yondashuv talablarini hisobga olish zarur.

Shu bilan birga, test nazoratining muayyan cheklovlari ham mavjud. Avvalo, test topshiriqlari ko'pincha tayyor javob variantlari asosida tuzilgani sababli o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil mulohaza yuritishi va chuqur tahlil qila olish qobiliyatini to'liq ochib bera olmaydi. Ayniqsa, yuqori darajadagi tafakkur (tahlil, sintez, baholash)ni talab etuvchi kompetensiyalarni test orqali baholash cheklangan bo'lib qoladi.

Bundan tashqari, testlash jarayonida taxmin qilish (guessing) omili mavjud bo'lib, bu ayrim hollarda baholash natijalarining aniqligini pasaytiradi. O'quvchilar testga moslashib olish orqali real bilim darajasidan yuqori natija ko'rsatishi ehtimoli ham mavjud.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda test nazoratining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

- test savollarini ochiq va yarim ochiq topshiriqlar bilan boyitish;

- testlarni yozma va ogʻzaki baholash shakllari bilan uygʻunlashtirish;
- test natijalariga tahliliy va izohli feedback berish;
- test banklarini muntazam yangilab borish va ekspertiza qilish.

Test nazorati maktab taʼlimida bilimni baholashning muhim va zarur vositasi boʻlib, u anʼanaviy baholash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Biroq uning samaradorligi faqatgina puxta metodik asos, sifatli test topshiriqlari va boshqa baholash usullari bilan uygʻunlashgan holda taʼminlanadi.

Anʼanaviy baholashning umumiy muammolari

Anʼanaviy baholash usullari (yozma, ogʻzaki va test nazorati) maktab taʼlimida uzoq yillar davomida tartib-intizomni saqlash, oʻquv jarayonini nazorat qilish hamda hisobot va attestatsiya vazifalarini bajarishda muhim roʻl oʻynab kelgan. Ushbu usullar taʼlim tizimining boshqaruv ehtiyojlariga javob berishi, natijalarni tez va tushunarli shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi. Biroq zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, anʼanaviy baholashning ustuvorligi taʼlim jarayonida qator tizimli muammolarni yuzaga keltirmoqda [4].

Avvalo, anʼanaviy baholash asosan yakuniy natijani qayd etishga yoʻnaltirilgan boʻlib, oʻquvchining bilimlarni egallash jarayoni, individual rivojlanish surʼati va oʻrganishdagi qiyinchiliklarini yetarli darajada aks ettira olmaydi. Baholash koʻpincha chorak yoki semestr oxiridagi baho bilan cheklanib, oʻquvchi qanday yoʻl bilan ushbu natijaga erishgani eʼtibordan chetda qoladi. Natijada baholash jarayoni taʼlimni rivojlantiruvchi vosita emas, balki nazorat va saralash mexanizmi sifatida namoyon boʻladi.

Ikkinchi muhim muammo - tashqi motivatsiyaning ustunligidir. Anʼanaviy baholash sharoitida oʻquvchilar koʻpincha bilim olishga emas, balki baho olishga yoʻnaltiriladi. Bu esa ichki motivatsiyaning pasayishiga, oʻrganishga qiziqishning susayishiga olib keladi. Oʻquvchi bilimni oʻz ehtiyoji va qiziqishi uchun emas, balki baho, ota-ona yoki oʻqituvchi talabi uchun egallashga intiladi.

Shuningdek, anʼanaviy baholash tizimi oʻquvchilarda bahodan qoʻrquv, hayajon va psixologik bosimni kuchaytirishi mumkin. Xususan, xato qilish jazolanadigan holat sifatida qabul qilinganda, oʻquvchilar faol fikrlashdan, savol berishdan va yangi yechimlarni sinab koʻrishdan choʻchib boshlaydilar. "Xato qilishdan qoʻrqish" sindromi ijodiy fikrlash va tanqidiy tafakkurning rivojlanishiga jiddiy toʻsqinlik qiladi.

Bundan tashqari, anʼanaviy baholash koʻpincha oʻrtacha oʻquvchiga yoʻnaltirilgan boʻlib, individual yondashuv imkoniyatlarini cheklaydi. Kuchli va sust oʻquvchilar bir xil baholash mezonlari asosida baholanadi, bu esa ayrim oʻquvchilar salohiyatining toʻliq ochilmasligiga olib keladi. Natijada differensial va inklyuziv taʼlim talablariga javob berish qiyinlashadi.

Mazkur muammolar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy baholash usullarini to'liq inkor etish maqsadga muvofiq emas, biroq ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitish va takomillashtirish zarur. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida an'anaviy baholash formatif baholash, kriterial yondashuv, rubrikalar, monitoring va sifatli feedback mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanishi lozimligi ta'kidlanadi.

Shunday qilib, an'anaviy baholashning umumiy muammolarini bartaraf etish baholashni jazolovchi va saralovchi mexanizmdan rivojlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi pedagogik vositaga aylantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa zamonaviy baholash yondashuvlarini ta'lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etishni taqozo etadi.

Zamonaviy baholash usullari va ularning didaktik imkoniyatlari

Diagnostik baholash - diagnostik baholash o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma va tayyorgarlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan baholash turi bo'lib, u ta'lim jarayonining boshlang'ich bosqichida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ushbu baholash shakli o'quvchilarning oldingi bilimlari, tushunchalari va kompetensiyalarini aniqlash orqali yangi o'quv materialini o'zlashtirishga tayyorgarlik holatini baholash imkonini beradi [5].

Diagnostik baholashning asosiy vazifasi - o'qitish jarayonini rejalashtirish uchun zarur axborotni taqdim etishdir. O'qituvchi diagnostik baholash natijalariga tayangan holda dars mazmunini moslashtiradi, o'qitish metodlarini tanlaydi va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvni belgilaydi. Bu, ayniqsa, o'quvchilar tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan sinflarda differensial va inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Pedagogik amaliyotda diagnostik baholash quyidagi holatlarda keng qo'llaniladi:

- yangi mavzu yoki bo'lim boshlanishida;
- o'quv yili boshida o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini aniqlashda;
- fan yoki sinf almashganda;
- o'quvchilarga individual yordam strategiyalarini ishlab chiqishda.

Diagnostik baholash jarayonida mini-testlar, qisqa yozma topshiriqlar, suhbat, savol-javob, kontseptual xaritalar, muammoli vaziyatlar kabi turli metod va vositalardan foydalanilishi mumkin. Muhimi, diagnostik baholash natijalari rasmiy baho qo'yish uchun emas, balki o'qitish jarayonini takomillashtirish va o'quvchilarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qilishi lozim.

Diagnostik baholashning muhim jihatlaridan biri – uning jazolovchi xarakterga ega emasligidir. Bu baholash shakli o'quvchilarda stress yoki bahodan

qo'rquvni keltirib chiqarmaydi, aksincha, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. O'quvchilar o'z bilim darajasini anglab, qaysi jihatlarga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini tushunib yetadilar.

Shu bilan birga, diagnostik baholash formatif baholash bilan uzviy bog'liq bo'lib, u keyingi baholash bosqichlari uchun metodik asos yaratadi. Agar diagnostik baholash puxta tashkil etilsa, o'qitish jarayonidagi xatolar va bo'shliqlar oldindan aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish imkoniyati oshadi.

Diagnostik baholash zamonaviy baholash tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash, ta'lim jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Formatif (shakllantiruvchi) baholash - o'qitish jarayoniga bevosita integratsiyalashgan, o'quvchilarga doimiy va sifatli teskari aloqa (feedback) berish orqali ularni belgilangan ta'lim maqsadlariga bosqichma-bosqich yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Ushbu baholash turining markazida an'anaviy ma'nodagi "baho qo'yish" emas, balki o'quvchining bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, rivojlanish dinamikasi va individual o'sishi turadi [6].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda formatif baholash o'qitish samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. U o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida muntazam muloqotni yo'lga qo'yadi hamda o'quvchiga "qayerdaman?", "qayerga borishim kerak?" va "unga qanday erishaman?" degan savollarga aniq javob topish imkonini beradi. Shu jihatdan formatif baholash o'qish jarayonining yo'naltiruvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Formatif baholash o'quvchilarda quyidagi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi:

- refleksiya - o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish va baholash;
- o'z-o'zini nazorat qilish - o'z xatolarini aniqlash va tuzatish;
- o'zaro baholash - tengdoshlar fikrini qabul qilish va baholash;
- mas'uliyat - ta'lim natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni his etish;
- ichki motivatsiya - bilim olishga bo'lgan qiziqishning kuchayishi.

Pedagogik amaliyotda formatif baholash turli shakl va usullar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, mini-testlar, refleksiya varaqalari, og'zaki izohlar, rubrikalar asosida baholash, loyiha va amaliy topshiriqlar, "exit ticket"lar, elektron platformalar orqali tezkor feedback berish formatif baholashning samarali vositalari hisoblanadi.

Formatif baholashning muhim xususiyatlaridan biri - uning jazolovchi xarakterga ega emasligidir. O'quvchi formatif baholash jarayonida xato qilishdan

qo'rqmaydi, aksincha, xatoni o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qiladi. Bu holat ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil o'rganish muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, formatif baholash summativ baholash uchun mustahkam asos yaratadi. Agar formatif baholash tizimli va izchil tashkil etilsa, summativ baholash natijalari yanada adolatli va ishonchli bo'ladi. Shu sababli zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida formatif va summativ baholash o'zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar sifatida qaraladi.

Formatif baholash zamonaviy baholash tizimining markaziy elementi bo'lib, u o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Summativ baholash - summativ baholash ta'lim jarayonining muayyan bosqichi yoki bo'limi yakunida o'quvchilarning erishgan o'quv natijalarini umumlashtirib qayd etishga yo'naltirilgan baholash turi hisoblanadi. Ushbu baholash shakli o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida belgilangan talablarga mosligi nuqtai nazaridan aniqlashga xizmat qiladi [7].

Pedagogik amaliyotda summativ baholash turli ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Jumladan, attestatsiya, chorak va yil yakuniy baholari, yakuniy nazorat ishlari, markazlashgan test sinovlari hamda standartlashtirilgan tekshiruvlar summativ baholashning keng tarqalgan shakllari hisoblanadi. Ushbu baholash natijalari, odatda, rasmiy hujjatlashtiriladi va o'quvchining keyingi ta'lim bosqichiga o'tishi, sertifikatlanishi yoki reytingini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Summativ baholashning muhim pedagogik funksiyalaridan biri - hisobdorlikni ta'minlashdir. U ta'lim muassasasi, o'qituvchi va ta'lim tizimi faoliyatining samaradorligini baholash, ta'lim natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar shakllantirish imkonini beradi. Shu jihatdan summativ baholash maktab va tizim darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Biroq zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, summativ baholash yakka holda qo'llanilganda ayrim salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, baholash faqat yakuniy natijaga qaratilganda, o'quvchilar orasida "faqat imtihon uchun o'qish" tendensiyasi kuchayadi, o'rganish jarayoni mazmunan torayadi va chuqur bilim o'rniga mexanik yodlash ustunlik qilishi mumkin. Bu holat o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Shuningdek, summativ baholash jarayonida o'quvchining rivojlanish dinamikasi, individual yutuqlari va o'rganishdagi qiyinchiliklari ko'pincha yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada baholash jazolovchi mexanizm sifatida qabul qilinib, o'quvchilarda stress, bahodan qo'rquv va tashqi motivatsiyaning ustunlashishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur cheklovlarni bartaraf etish uchun zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida summativ baholashni formatif baholash bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Agar formatif baholash orqali o'quvchining rivojlanish jarayoni muntazam qo'llab-quvvatlansa, summativ baholash natijalari yanada adolatli, ishonchli va mazmunli bo'ladi. Bunday yondashuv baholashni nafaqat nazorat, balki ta'limni rivojlantirish vositasiga aylantiradi.

Summativ baholash maktab ta'limida hisobdorlik va standartlarga muvofiqlikni ta'minlashda zarur vosita bo'lsa-da, uning pedagogik samaradorligi formatif va diagnostik baholash bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilgandagina to'liq namoyon bo'ladi.

Reyting tizimi (akkumulyativ baholash) o'quvchining ma'lum bir davr - chorak yoki semestr davomida bajargan barcha o'quv faoliyati natijalarini jamlash asosida baholashni nazarda tutuvchi zamonaviy baholash yondashuvidir. Ushbu tizimda o'quvchining faqat yakuniy nazoratdagi natijasi emas, balki dars jarayonidagi faolligi, mustaqil va ijodiy ishlari, oraliq baholash natijalari ham umumiy bahoga ta'sir ko'rsatadi [8].

Reyting tizimining pedagogik mohiyati shundaki, u baholashni uzluksiz jarayon sifatida tashkil etishga imkon beradi. Bunda o'quvchi ta'lim jarayonining har bir bosqichida o'z faoliyati baholanayotganini his etadi va muntazam ishlashga intiladi. Shu jihatdan reyting tizimi o'quvchilarda mas'uliyat, intizom va barqaror o'quv motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'quvchining muntazam va tizimli ishlashini rag'batlantiradi, chunki baho bir martalik nazoratga emas, balki uzoq muddatli faoliyatga bog'liq bo'ladi;
- yakuniy bahoda tasodif omilini kamaytiradi, chunki baholash bir nechta manbalar va faoliyat turlariga asoslanadi;
- baholash jarayonining shaffofligini ta'minlaydi, o'quvchi o'z reytingini kuzatib borish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish va rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik amaliyotda reyting tizimi turli komponentlar asosida tashkil etilishi mumkin. Masalan, darsdagi faollik, uy vazifalari, kichik testlar, loyiha va ijodiy ishlar, formatif baholash natijalari hamda yakuniy nazorat ishlariga ma'lum

foiz (ball)lar ajratiladi. Ushbu ballar yig'indisi o'quvchining umumiy reytingini belgilaydi.

Shu bilan birga, reyting tizimining ayrim cheklovlari va xavflari ham mavjud. Agar mezonlar aniq va tushunarli bo'lmasa, baholashda adolatsizlik hissi paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, reyting tizimi noto'g'ri tashkil etilganda o'quvchilar o'rtasida haddan tashqari raqobatni kuchaytirib, stress va psixologik bosimni oshirishi ehtimoli mavjud. Ayrim hollarda esa o'quvchilar reytingni oshirishga yo'naltirilgan "ball yig'ish" faoliyatiga berilib, bilim mazmuniga yetarlicha e'tibor qaratmasligi mumkin.

Shu sababli reyting tizimini joriy etishda quyidagi pedagogik shartlarga amal qilish muhim hisoblanadi:

- adolatli va aniq mezonlarni oldindan belgilash va e'lon qilish;
- baholash komponentlari o'rtasida muvozanatni saqlash;
- sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va ortiqcha stressning oldini olish;
- reyting natijalariga izohli va rag'batlantiruvchi feedback berish.

Reyting tizimi maktab ta'limida baholashning samarali va moslashuvchan shakli bo'lib, u o'quvchilarning uzluksiz o'qishini qo'llab-quvvatlash va baholash jarayonining obyektivligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq uning pedagogik samaradorligi faqatgina ilmiy asoslangan mezonlar, shaffoflik va rivojlantiruvchi yondashuvlar asosida tashkil etilgandagina ta'minlanadi.

Zamonaviy baholash amaliyotida kriterial (mezonli) yondashuv alohida ahamiyat kasb etib, u baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mezonli baholashning mohiyati o'quvchi natijalarini oldindan belgilangan, ochiq va tushunarli mezonlar bilan solishtirish orqali baholashdan iborat bo'lib, bunda baho boshqa o'quvchilar bilan qiyoslash asosida emas, balki belgilangan standart va talablar asosida qo'yiladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda baholash natijalariga nisbatan ishonchni kuchaytiradi hamda baholash jarayonida subyektivlikni kamaytiradi.

Kriterial baholashda baholash mezonlari muhim o'rin tutadi. Mezonlar o'quvchidan kutilayotgan natijalarni aniq ifodalaydi va o'qituvchi hamda o'quvchi uchun umumiy yo'nalish vazifasini bajaradi. To'g'ri ishlab chiqilgan mezonlar o'quvchilarga o'z faoliyatini rejalashtirish, bajarilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusida ularni takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga mezonlar fan mazmuni, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos bo'lishi lozim.

Kriterial baholash jarayonida rubrikalar keng qo'llaniladi. Rubrikalar baholash mezonlarini darajalar bo'yicha tavsiflab beruvchi jadval yoki tavsifiy ko'rsatkichlar

majmuasi bo'lib, ular baholashni yanada aniqlashtiradi. Pedagogik amaliyotda rubrikalarning ikki asosiy turi ajratiladi:

- analitik rubrikalar - har bir mezonni alohida baholash imkonini beradi;
- yaxlit (holistik) rubrikalar - o'quvchi ishini umumiy darajada baholashga yo'naltiriladi.

Rubrikalardan foydalanish baholash jarayonini obyektivlashtirish, o'quvchilarga sifatli va aniq teskari aloqa berish hamda ularni "qanday yaxshilash mumkin?" degan savolga yo'naltirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, rubrikalar formatif baholashda samarali bo'lib, o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, rubrikalardan foydalanishda ayrim muammolar va cheklovlar ham mavjud. Agar rubrikalar haddan tashqari qat'iy, batafsil va moslashuvchan bo'lmasa, ular o'quvchilarning ijodkorligi va mustaqil yondashuvini cheklashi mumkin. O'quvchilar rubrikaga "mos keladigan" ishni bajarishga intilib, yangicha va noodatiy yechimlardan voz kechish ehtimoli yuzaga keladi. Shu sababli rubrika dizayni ta'lim maqsadlariga mos, muvozanatli va moslashuvchan bo'lishi zarur.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda kriterial baholashni samarali tashkil etish uchun quyidagi shartlarga amal qilish tavsiya etiladi:

- mezon va rubrikalarni dars boshida yoki topshiriq berishdan oldin o'quvchilarga tanishtirish;
- rubrikalarni o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilish va zaruratga ko'ra takomillashtirish;
- mezonlarni kompetensiyaviy natijalar bilan bog'lash;
- rubrikalardan baholash bilan birga o'rgatuvchi vosita sifatida foydalanish.

Kriterial baholash, mezonlar va rubrikalar zamonaviy baholash tizimining muhim tarkibiy qismlari bo'lib, ular baholash jarayonini shaffof, adolatli va rivojlantiruvchi mexanizmga aylantiradi. Ularning samarali qo'llanilishi o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini obyektiv baholash bilan bir qatorda, o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Monitoring va noan'anaviy baholash usullari - so'nggi yillarda ta'lim amaliyotida an'anaviy "nazorat" tushunchasi tobora "monitoring" yondashuvi bilan boyitilib, baholash jarayoni uzluksiz kuzatuv va o'z vaqtida pedagogik tuzatishlar kiritishga yo'naltirilmoqda. Monitoring baholashning bir martalik tekshiruvdan iborat bo'lmagan, balki o'quvchining rivojlanish jarayonini muntazam va tizimli tarzda kuzatib borishga asoslangan shakli hisoblanadi [9].

Monitoringning asosiy maqsadi - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalaridagi o'zgarishlarni dinamik tarzda aniqlash, ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni erta bosqichda aniqlash va ularga mos

pedagogik choralarni ko'rishdir. Ushbu yondashuv baholashni faqat natijani qayd etish vositasi emas, balki o'qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etishga imkon beradi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda monitoring turli noan'anaviy baholash usullari bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilmoqda. Jumladan, loyiha ishlari, portfel (portfolio), keys-topshiriqlar, kontekstli vazifalar, guruhli va frontal baholash shakllari baholash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Loyiha ishlari o'quvchilarning mustaqil izlanish, muammoni hal qilish va natijani taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu baholash shakli o'quvchining bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.

Portfel (portfolio) o'quvchining ma'lum davr mobaynida bajargan ishlari, yutuqlari va rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi hujjatlar to'plamidir. Portfel orqali o'quvchining individual o'sishi, kuchli va rivojlanishi lozim bo'lgan jihatlari aniqlanadi, bu esa formatif baholashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Keys-topshiriqlar va kontekstli vazifalar o'quvchilarning analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular bilimlarni real muammolar asosida qo'llashni talab etadi. Ushbu baholash shakllari kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Guruhli va frontal baholash esa o'quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini, jamoada ishlash, fikr almashish va mas'uliyatni bo'lishish qobiliyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu usullar o'quvchilarda o'zaro baholash va hamkorlik madaniyatini shakllantiradi.

Monitoring va noan'anaviy baholash usullarining muhim afzalligi – ularning rivojlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi xarakterga ega ekanligidir. Ushbu yondashuvlarda baholash jazolovchi mexanizm sifatida emas, balki o'rganish jarayonini boyituvchi vosita sifatida qaraladi. Natijada o'quvchilarda ichki motivatsiya, mustaqil o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi [10].

Shu bilan birga, monitoring va noan'anaviy baholash usullarini samarali tashkil etish o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik, rejalashtirish va baholash kompetentligini talab qiladi. Baholash mezonlari aniq belgilanmasa yoki monitoring tizimli tashkil etilmasa, ushbu usullarning samaradorligi pasayishi mumkin.

Monitoring va noan'anaviy baholash usullari zamonaviy baholash tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish va ta'lim sifatini oshirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

Qirg'iziston misolida baholash tizimini takomillashtirish zaruratini asoslovchi omillar aniq ko'rinadi: PISA-2006, PISA-2009 hamda milliy tanlama baholash natijalari (NOODU-2007, NOODU-2009) o'quvchilarning amaliy yo'naltirilgan ko'nikmalarida muammolar borligini ko'rsatgan. Ta'limda "bilimga yo'naltirilgan yondashuv" ustunligi, kompetensiyalarni shakllantirishga yetarli e'tibor berilmasligi baholash modelini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. 2020 yilgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida umumiy ta'limning asosiy maqsadi kompetensiyalarni shakllantirish sifatida belgilanishi ham baholashni kompetensiyaviy natijalarga moslashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, baholash faqat tekshiruv emas, balki butun ta'lim tizimini isloh qilishga xizmat qiluvchi "rivojlantiruvchi mexanizm" bo'lishi kerak.

Maktab amaliyotida baholash samaradorligi an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularni ilmiy asosda uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Buning uchun:

- sinf darajasida formatif baholash va teskari aloqani kuchaytirish;
- summativ baholashni kompetensiyaviy natijalar bilan bog'lash;
- kriterial mezonlar va rubrikalarni barcha ishtirokchilar uchun ochiq qilish;
- diagnostik baholash orqali individual ta'lim trajektoriyalarini belgilash;
- reyting tizimini muntazam mehnatni rag'batlantiruvchi, ammo ortiqcha stress keltirmaydigan shaklda joriy etish;
- monitoringni uzluksiz qo'llash va natijalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish zarur.

Shuningdek, o'qituvchilarning baholash kompetentligini oshirish muhim: baholash vositalarini yaratish, test savollarining validligi va ishonchliligini ta'minlash, rubrika tuzish, feedback madaniyatini rivojlantirish kabi yo'nalishlar baholash sifatini belgilaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktab ta'limida bilimni baholashning an'anaviy usullari (yozma, og'zaki, test) ta'lim jarayonida muhim nazorat va tartibga solish funksiyalarini bajaradi, biroq ular ko'pincha o'quvchining rivojlanish dinamikasini yetarli yoritmaydi. Zamonaviy baholash yondashuvlari (diagnostik, formatif, summativ, reyting, kriterial, monitoring, portfel, loyiha, keys) esa ta'lim natijalarini kompleks ko'rishda, kompetensiyalarni shakllantirishda va ta'lim sifatini oshirishda yuqori didaktik imkoniyatlarga ega. Eng samarali yechim - baholash tizimini sinf-maktab-tizim darajasida izchil tashkil etgan holda, an'anaviy va zamonaviy baholash vositalarini mezonli, shaffof va rivojlantiruvchi tamoyillar asosida uyg'unlashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Калдыбаев С.К. Оценивание учебных достижений учащихся: теория и практика. - Бишкек: Ала-Тоо, 2012. – 256 с.
2. Калдыбаев С.К. Критериальное оценивание как фактор повышения качества образования // Педагогика. - Бишкек, 2014. - №2. - С. 45-52.
3. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education. - 1998. - Vol. 5, №1. - P. 7-74.
4. OECD. PISA 2006: Science Competencies for Tomorrow's World. – Paris: OECD Publishing, 2007.
5. OECD. PISA 2009 Results: What Students Know and Can Do. – Paris: OECD Publishing, 2010.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари. - Тошкент, 2020.
7. Формы и методы контроля и оценки знаний обучающихся на занятиях по специальным дисциплинам / С. В. Некрасова // Молодой ученый. – 2017. – № 39 (173). – С. 96-98. – URL: <https://moluch.ru/archive/173/45765>
8. BA Elmuratovich. [TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH METODIKASI](#) // JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-8 ISSUE-1 (30- January) 2025. B. 13-16
9. BA Elmuratovich, AA Amubekovna. [TEMURBEKLAR TA'LIM TAJRIBASINI YAXSHILASH](#) // AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 2025. С. 237-244
10. BA Elmuratovich. [ZAMONAVIY O 'RTA MAKTAB MODELINI YARATISH](#) // PEDAGOG, 2025. С.139-143